

**BOLALARDA ODONTOGEN FLEGMONALARNI MAHALLIY DAVOLASHDA
SORBENTLARNING AHAMIYATI**

Ikramov G.A.

Qodirov E.M.

Abduqahorov A.K.

Zokirjonova G.X.

Toshkent Davlat Tibbiyot Universiteti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20065178>

Dolzarbli. Yuz-jag' sohasidagi yallig'lanish kasalliklarining etilogiyasida patogen mikroflora asosiy o'rinni egallaydi, aksariyat hollarda og'iz bo'shlig'idagi shilliq qavatlarda, karioz bo'shliqlarida va parodontal cho'ntaklarda ko'proq uchraydi. Shu sababli, ko'p tadqiqotlar aynan bunday florani ajratib olish va o'rganishga qaratilgan.

Hozirgi kundagi tadqiqotlarning natijalari *Staphylococcus aureus*, *Streptococcus spp* kabi mikroorganizmlarni yuz-jag' sohasidagi yiringli-yallig'lanish kasalliklarida etilogik ahamiyatini isbotlovchi dalillardir. Shuningdek, shartli-patogen flora va uning yuz-jag' sohasidagi o'tkir odontogen yiringli yallig'lanish kasalliklari rivojlanishidagi roli haqida katta ma'lumotlar bazasi mavjud.

Yuz-jag' sohasidagi o'tkir yiringli-yallig'lanish kasalliklarini davolash bilan bog'liq masalalar haqida gapirganda, hozirgi vaqtda endogen intoksikatsiyani davolash masalasi ko'tarilmoqda.

Zamonaviy sharoitlarda, organizmning farmakologik ortiqcha yuklanishi, ekologik omillar tomonidan immunologik himoyaning susayishi, mikrofloraning antibiotiklarga qarshi sezgirligining pasayishi va organizmning allergik reaksiyasi, keng tarqalgan davolash usullarining samaradorligi past ekanligini ta'kidlanmoqda.

Hozirgi kunda jarrohlik va dori-darmon bilan davolash tamoyillari asosli ravishda ishlab chiqilgan bo'lib, jag' atrofida flegmonalarni davolashda sezilarli yutuqlarga erishilgan. Biroq, ularning samaradorligi hali ham yetarli darajada ijobiy natija bermaydi. Jarrohlik davolashdan tashqari, yiringli-yallig'lanish kasalliklarini patogenetik terapiyasi quyidagi davolash tadbirlarini talab qiladi: infeksiyaga qarshi kurash, immunitetni oshirish, detoksikatsiya va umumiy mustahkamlovchi terapiya.

O'tkir odontogen yiringli-yallig'lanish kasalliklarini dori-darmon bilan davolashda antibakterial terapiya asosiy o'rin egallaydi. Biroq, zamonaviy antibiotiklarning keng tanlovi bo'lishiga qaramay, bemor hayotiga xavf soladigan asoratlar soni kamaygani yo'q. Yuz-jag' sohasidagi o'tkir yiringli-yallig'lanish kasalliklari soni oshmoqda, kasallikning atipik shakllari paydo bo'lmoqda va yiringli-yallig'lanishning og'ir toksik ko'rinishlari kuzatilmoqda.

Yuz-jag' sohasidagi o'tkir yiringli-yallig'lanish kasalliklarini davolash bilan bog'liq masalalar haqida gapirganda, hozirgi vaqtda endogen intoksikatsiyani davolash masalasi ko'tarilmoqda. Zamonaviy sharoitlarda, organizmning farmakologik ortiqcha yuklanishi, ekologik omillar tomonidan immunologik himoyaning susayishi, mikrofloraning antibiotiklarga qarshi sezgirligining pasayishi va organizmning allergik reaksiyasi, keng tarqalgan davolash usullarining samaradorligi past ekanligini ta'kidlanmoqda.

Chet ellik va yurtimizdagi mualliflarning ko'plab tadqiqotlari natijalaridan kelib chiqib, yiringli-yallig'lanish jarayonlari bo'yicha antibakterial terapiya deyarli 30% hollarda yordam bermasligi, bu esa asoratlarning og'irligini va sonini oshirishini ko'rsatmoqda.

Tadqiqot maqsadi: Bolalarda odontogen flegmonalarda "Polisorb" sorbentini qo'llash orqali mahalliy davolash samaradorligi baholandi.

Tadqiqotdan oldimizga qo'yilgan asosiy vazifalar:

1- Bolalarda odontogen flegmonalarni ochgandan keyin, yiringli o'choqning klinik ko'rsatgichlarini baholash.

2-Odontogen flegmonalarni ochgandan keyin yara mikroflorasining holatini "Polisorb" sorbentidan foydalangan holda baholash.

3-Odontogen flegmonalarda "Polisorb" sorbentini mahalliy qo'llash bilan an'anaviy davolash usullarining samaradorligini qiyosiy baholash.


Tadqiqot materiali va usullari: Ushbu tadqiqot 3 yoshdan 14 yoshgacha bo'lgan 50 nafar bolani o'z ichiga olgan Toshkent Davlat Tibbiyot Universiteti Stomatologiya klinikasi Bolalar yuz-jag' jarroxligi bo'limi o'tkazildi. Materiall sifatida "Polisorb" sorbenti ishlatildi.

Ushbu jarayonda bolalarning yoshi, jinsi, mahalliy klinik ko'rsatgichlariga alohida e'tibor qaratildi. O'tkir odontogen yiringli-yallig'lanish kasalliklari bilan og'rikan bolalar 2 guruhga bo'lindi:

1-guruh- an'anaviy davolash (n-25)


2-guruh-an'anaviy hamda" Polisorb" sorbentini mahalliy qo'llash orqali davolangan guruh (n-25)

Shuningdek, bolalarning yoshiga qarab ular 3 guruhga bo'lindi:



1. 3-7 yoshli bolalar 29 ta jami bolalarning 58%ini tashkil qiladi
2. 7-10 yoshli bolalar 12 ta jami bolalarning 24% ini tashkil qiladi
3. 10-14 yoshli bolalar 9 ta jami bolalarning 18% ini tashkil qiladi


Bolalarning jinsga qarab taqsimlanishi:



1. Qiz bolalar soni 20 ta bo'lib jami bolalarning 40 % ini tashkil qiladi
2. O'g'il bolalar soni 30 ta bo'lib jami bolalarning 60 % ini tashkil qiladi


Qo'yilgan vazifalarni hal etish maqsadida tadqiqot uchta asosiy bosqichni o'z ichiga oldi:

1-bosqich: Bolalarda o'tkir odontogen yallig'lanish kasalliklari (O'OYK) bilan bog'liq stasionar davolanish ko'rsatkichlari o'rganildi.



Yuqoridagi diagrammadan ko'rishimiz mumkin, bolalarda tana haroratining o'zgarishi "An'anaviy davolash" usulida 7-kunga to'g'ri kelgan, ya'ni tana haroratining 36,6° C ga tushishi bo'limda yotishning 7-davolanish muddatiga to'g'ri kelgan. "An'anaviy davolash + "Polisorb PM" " usulida esa tana haroratining 36,6° C ga tushishi bo'limda yotishning 5-kuniga to'g'ri kelgan.

2-bosqich: Sorbentning yiringli yara holatiga ta'siri morfologik jihatdan baholandi.



Sorbentning mahalliy klinik ko'rsatgichlarga ta'sirini 2-kundan boshlab ko'rishimiz mumkin, bu esa "An'anaviy davolash" dagi mahalliy klinik ko'rsatkichlarning o'zgarishidan 2 kun oldinroq natijaga erishilganini ko'rsatadi (1-rasm). Bu natija esa o'tkir odontogen yiringli-yallig'lanish kasalliklarida bolalardagi psixologik, immunologik, morfologik muammolarni erta muddatda hal etilishiga va bolalardagi turli xil muammolarni oldini olishga sabab bo'ladi.

3-bosqich: «**Polisorb PM**» sorbentidan odontogen flegmonalari bo'lgan bolalarni mahalliy davolashda foydalanish samaradorligi aniqlandi.

"Polisorb MP" ta'sir etuvchi modda (XPN) kolloid kremniy dioksidi. Dori shakli ichga qabul qilish uchun suspenziya tayyorlash uchun kukun. Tarkibi preparatning bir grammi quyidagilarni saqlaydi faol modda kolloid kremniy dioksidi 1,0 g, oq yoki moviy tusli oq rangli, yengil, hidsiz kukun. "Polisorb MP" kimyoviy formulasi SiO_2 bo'lgan, zarrachalarning o'lchami 0,09 mm gacha yuqori dispersiyali kremnezem asosida olingan, anorganik, noselektiv, polifunksional enterosorbentdir.

Tadqiqot natijalari: Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, bolalarda o'tkir odontogen yiringli-yallig'lanish kasalliklarida "Polisorb PM" sorbenti zarur darajadagi sorbsiya qobiliyatiga ega bo'lishi, jarohat ajralmalarining to'qimalarga so'rilishiga to'sqinlik qilishi, ularning oqib chiqishini ta'minlashi, mikroblar va ularning hayot faoliyati mahsulotlarini yo'qotishi, yaqqol yallig'lanishga qarshi, nekrolitik, og'riq qoldiruvchi va shishga qarshi ta'sir ko'rsatishi hamda optimal reparatsiya (tiklanish) uchun sharoit yaratishi aniqlandi.

Ta'kidlash joizki, aplikatsion sorbsiya — bu mahalliy detoksikatsiya usuli bo'lib, sorbentning jarohat yuzasi bilan bevosita kontakti orqali yiringli jarohat ajralmalaridan toksik metabolitlar, mikroblar va bakterial toksinlarni ajratib olishga asoslanadi. Shuningdek, sorbentlar jarohatni o'rab turgan to'qimalarda lipidlarning peroksid oksidlanishining barqaror darajasini saqlab turishi va to'qimalarning antioksidant xususiyatlarini saqlanishiga yordam berishi aniqlangan.

Xulosa qilish mumkinki, odontogen flegmonalari bo'lgan bolalarda yallig'lanish jarayonining umumiy va mahalliy belgilarining ifodalanganlik dinamikasi klinik ko'rsatkichlar dinamikasiga mos kelgan.

Shunday qilib, «Polisorb PM» sorbentidan foydalanish natijalari bolalarda odontogen flegmonalarni kompleks davolash jarayonida klinik hamda morfologik ko'rsatkichlarning yaxshilanganini ko'rsatadi.

Olingan natijalarni tahlil qilib, quyidagilarni ta'kidlash mumkin: «Polisorb PM» sorbenti

- bemorning umumiy holatini tezroq normallashtiradi va yallig'lanish jarayonining mahalliy belgilarini tez bartaraf etadi;

- samarali va qo'llashda oddiy;
- bog'lamalarni og'riqsiz o'tkazishni ta'minlaydi hamda yiringli ekssudatni dezodoratsiya qiladi;

- qarshi ko'rsatmalarga ega emas, nojo'ya va allergik reaksiyalarni chaqirmaydi;
- odontogen flegmonalari bo'lgan bolalarni davolash muddatini qisqartiradi;
- sezilarli iqtisodiy samaradorlikni ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. M. Azimov Bolalarda yuz-jag' soxalarining odontogen yallig'lanish kasalliklari.-2017. 5-10 b.
2. Jilonov A.A.,Narmahmatov B.T. Yuz- jag' xirurgiyasi.-2017.
3. M.I.Azimov Bolalar jarrohlik stomatologiyasi.-2017.
4. Shargorodskiy A. G.Yuz-jag' va bo'yin soxasi to'qimalarining yallig'lanish kasalliklari.-2001. 6-10 b.
5. T. G. Robustova Xirurgik stomatologiya.2003.180 b.
6. Икрамов Г. А. и др. Современный взгляд на этиологию и патогенез одонтогенных абсцессов и флегмон челюстно-лицевой области (обзор литературы) //Интернаука. – 2021. – №. 12-1. – С. 72-75.
7. **Odontogenic infections: microbiology and management**
<https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/>
(qidiruvga: *odontogenic infections microbiology management* deb yozing)
8. **Deep neck space infections of odontogenic origin**
<https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/?term=deep+neck+space+infection+odontogenic>
9. **Management of odontogenic fascial space infections**
<https://scholar.google.com/scholar?q=management+of+odontogenic+fascial+space+infections>
10. **Microbiology of odontogenic infections**
<https://scholar.google.com/scholar?q=microbiology+of+odontogenic+infections>
11. <https://www.sciencedirect.com/>
12. <https://www.elsevier.com/>
13. <https://cyberleninka.ru>
14. <https://elibrary.ru>
15. <https://www.mediasphera.ru>
16. <https://www.dissercat.com>

17. <https://medical-diss.com>
18. <https://www.aaoms.org>
19. <https://www.nice.org.uk>